

## KO'P TILLILIK (MULTILINGUALISM) VA UNING IJTIMOIIY TA'SIRI

**Xudoyorova Nafisa Oybek qizi,**  
O'zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sotsiolingvistikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan ko'p tillilik (multilingualism) hodisasi, uning jamiyat va shaxs rivojiga ta'siri yoritilgan. Muallif tomonidan ko'p tillilikning kommunikativ, ijtimoiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinib, uning ta'lim jarayonidagi o'rni alohida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada ko'p tillilikning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ona tilining mavqei pasayishi hamda interferensiya kabi muammolari ham ilmiy asosda bayon etilgan. Tadqiqot natijalari va misollar orqali ko'p tillilikning shaxsning fikrlash doirasini kengaytirishi hamda o'quv natijalariga ijobiy ta'siri asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'p tillilik, multilingualism, ona tili, interferensiya, til o'rganish, sotsiolingvistika, ta'lim, madaniyat, kommunikatsiya.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается феномен многоязычия, важная область социолингвистики, и его влияние на общество и личностное развитие. Исследование анализирует коммуникативное, социальное и культурное значение многоязычия, подчеркивая его роль в образовательном процессе. Кроме того, статья затрагивает возможные проблемы, связанные с многоязычием, такие как ослабление родного языка и лингвистическая интерференция. На основе результатов исследований и примеров показаны положительные эффекты многоязычия на когнитивное развитие и учебные достижения.

**Ключевые слова:** многоязычие, родной язык, интерференция, изучение языка, социолингвистика, образование, культура.

**Abstract.** This article examines the phenomenon of multilingualism, a significant area in sociolinguistics, and its impact on both society and individual development. The study analyzes the communicative, social, and cultural importance of multilingualism, highlighting its role in the educational process. In addition, the article addresses potential challenges associated with multilingualism, such as the weakening of the native language and linguistic interference. Through research findings and examples, the positive effects of multilingualism on cognitive development and academic performance are demonstrated.

**Keywords:** multilingualism, native language, interference, language learning, sociolinguistics, education, culture, communication.

**Kirish.** Sotsiolingvistikada keng o'rganiladigan tarmoqlardan biri ko'p tillilik, ya'ni multilingualism hisoblanadi. Chunki turli tillarning bir jamiyat doirasida qo'llanishi ijtimoiy muhit, madaniyat va kommunikativ jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Multilingualism — bu bir shaxs yoki jamiyatning ikki yoki undan ortiq tillarni bilishi va kundalik hayotda ularni faol qo'llay olish qobiliyatidir. Zamonaviy globallashuv sharoitida ko'p tillilik jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lib, u nafaqat shaxsning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida bir nechta tillarning parallel ravishda qo'llanishi odatiy holga aylanib bormoqda. Bu esa insonlarning turli millat va madaniyat vakillari bilan erkin muloqot qilishiga, axborot almashinuvini

tezlashtirishga va yangi imkoniyatlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Ayniqsa, ta'lim sohasida ko'p tillilik muhim ahamiyat kasb etib, yoshlar bundan foydalanib turli xalqlarning izlanishlari bilan tanishib, organib keng miqyosda turli yutuqlarga erishishiga turtki bo'ladi. Shu bilan birga, ko'p tillilik ayrim muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, tillarning aralashuvi, ona tiliga bo'lgan e'tiborning susayishi kablardir. Shuning uchun ham bu hodisani chuqur o'rganish bugungi kunda muhim masalardan biri.

**Asosiy qism.** Turli tillarni o'rganish turli xalqlarning nafaqat tili balki madaniyati, urf-odati, tarixi va qadriyatlari bilan tanishib organish demakdir. Shunday ekan inson til o'rganib faqatgina nutqiy emas fikrlash doirasini ham kengaytiradi. Hozirgi zamonaviy dunyoda til o'rganishga bolgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Ilm fan, texnologiya boshqa barcha zamonaviy kasblar yangi tillarni o'rganish va yangiliklar kashf etishga undab, xalqaro munosabatni yaxshilash va dunyo miqyosiga kotarilib standartlarga javob bera oladigan sohalar va kashfiyotlar yaratishda til bilish va uni amalda qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizda ham ko'p tillilik va turli xalqlar bilan aloqalarni yaxshilash, yo'lga qoyish uchun keng imkoniyatlar yaratilib, kelinmoqda. Ko'p tillilik bizga katta imkoniyat va qulayliklar ochib beradi. A. Berdaliyev oz asarida Alisher Navoiy va Sadridin Ayniy kabi ijodkorlarning ko'ptillilik mahoratining yorqin misoli sifatida keltirgan. Chunki ular o'zbek va tojik tillarida bir xil darajada ijod qilganlar. Sadridin Ayniy "Qullar" romanini dastlab tojik tilida yozib, keyinchalik uni o'zi o'zbek tiliga tarjima qilgan.[ 1 ] Bundan ko'rinadiki, ikki tillilik ijodiy imkoniyatlarni ham kengaytiradi. Turli mavzuda asarlarni yaratish va ularni to'g'ridan tog'ri tarjima qila olish imkoniyati orqali o'z fikrini boshqa tilda ham aniq yetkazib bera olish imkonini beradi.

Ko'ptillilikning yangi tilni o'zlashtirish jarayonidagi o'quv natijalariga ham sezilarli ta'sir qilishini Virginia P. Collier va Wayne P. Thomas tomonidan olib borilgan ko'p tilli va bir tilli talabalarning o'quv ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslangan tadqiqotida korishimiz mumkin. Tadqiqot davomida 42 000 dan ortiq baholar tahlil qilinib, muhim xulosaga kelingan: faqat bitta tilda so'zlashadigan talabalar ikki yoki undan ortiq tilni biladigan talabalarga nisbatan pastroq natijalarga erishgan. Xususan, bir tilli talabalarning atigi 11 foizi ko'p tilli talabalardan yuqori natija ko'rsatgan.[ 2 ]

Tillarni o'rganish jarayoniga qarab, ko'p tillik hodisasi tabiiy (kundalik hayotda) yoki sun'iy (o'quv jarayonida) turlarga bo'linadi. Tabiiy ko'p tillilik oldindan rejalashtirilmagan nutq amaliyoti ta'siri orqali vujudga keladi. Sun'iy esa faqat o'quv va kasbiy jarayonlarda (institusional) yuzaga keladi. [3].

Tabiiy va suniy ko'p tillik insonning oilasi, jamiyatdagi o'rni, ishi yoki oqish joyiga qarab shakllanishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Misol qilib keltiradigan bo'lsam. Hozirda ko'plab o'zbek oilalarining farzandlari rus tilidagi bog'cha yoki maktablarda ta'lim oladi. Bu ularda ko'p tillilik shakllanishiga sabab bo'ladi. Ya'ni ular oilada o'zbek tilida so'zlashib bog'cha yoki maktabda rus tilidan foydalanadi.

Ko'p tillilik ko'plab imkoniyatlar yaratishiga qaramay, u ayrim murakkablik va muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, ona tiliga e'tiborning susayib ketishi buning yozqin misoli. "Aholining ko'pchiligi o'zbek tilidan tashqari rus tilini ham faol qo'llaydi. Bu holat sobiq Sovet

Ittifoqi davridagi tarixiy meros, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro aloqalarning kengayishi bilan bog'liq. Shu sabab, rus tilining ba'zi sohalarida ustunligi saqlanib qolmoqda.

Mamlakatimiz til siyosatini ona tilini ustuvorlikka qo'ygan holda olib borishga intilmoqda" [4] Qaimjonova Mohidil shu kabi fikrlar bilan o'z maqolasida ona tilining susayishi mumkinligiga urg'u bergan. Albatta, bunday holatlar ayniqsa bugungi kunda juda kengayib bormoqda. Nafaqat rus balki boshqa tillardan keng foydalanib, o'zbek tilidan rasmiy hujjat yoki darsliklarda faol foydalansada o'zaro aloqada rus yoki ingliz tilidan ko'p foydalanishmoqda. Ko'p tillilik jarayonida turli tillarning o'zaro ta'siri natijasida ayrim lingvistik muammolar yuzaga keladi. Ana shunday muammolardan biri interferensiya hodisasi hisoblanadi.

Ikki tilni biladigan shaxsning bir tilning ikkinchi tilga ko'rsatadigan har qandar ta'sir yoki bu ta'sirning natijasi interferensiya deyiladi. Bunga ko'ra interferensiya turli bolishi mumkin. Ko'p uchraydiganlaridan biri bu ona tilning ikkinchi tilga interferensiyasi lekin ba'zi holatlarda ikkinchi til assoiy til sifatida namoyon bolib, aksincha ona tilga interferensiyasi kuratolishi mumkin. [5 ]

Bunda korinadiki, turli tillardagi bir biriga to'g'ri kelmaydigan ba'zi talaffuz yoki grammatikalardagi qoidalar sababli ko'p tillilikda ikki til ning o'zaro ta'siri ham ko'p kuzatiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ko'p tillilik zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, u insonning nafaqat kommunikativ, balki intellektual va madaniy rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turli tillarni o'zlashtirish orqali shaxs dunyoqarashini kengaytiradi, turli xalqlarning madaniyati va qadriyatlarini chuqurroq anglay boshlaydi. Shuningdek, ko'p tillilik ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq, ko'p tillilik bilan bog'liq ayrim muammolar, xususan, ona tiliga e'tiborning susayishi hamda interferensiya hodisasi mavjudligi ushbu jarayonni chuqur va ilmiy asosda o'rganishni talab etadi. Shu sababli, ko'p tillilikni rivojlantirish bilan bir qatorda, milliy tilning mavqeini mustahkamlash va uni asrab-avaylash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Demak, ko'p tillilik imkoniyatlar va muammolar uyg'unligidan iborat murakkab jarayon bo'lib, uni to'g'ri yo'naltirish orqali jamiyat taraqqiyotiga ijobiy hissa qo'shish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A. Berdaliyev – "O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi"-Toshkent -2019. 32-bet
2. Virginia P. Collier va Wayne P. Thomas "Validating the Power of Bilingual Schooling: Thirty-Two Years of Large-Scale, Longitudinal Research"1997 and 2002
3. Xadjiyeva Sh., Mamadjanova K. "Ko'p tillilik va chet tilini o'rganish – zamonaviy xorijiy mulohazalar"-Samarqand davlat chet tillar institutining "Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnali. 2024-yil
4. Qaimjonova Mohidil Dilmurod qizi. "IKKI TILLILIK SHAROITIDA ONA TILINING SAQLANISH MUAMMOLARI"-Innovative Academy ilmiy platformasidagi jurnal -2024-yil.
5. Sh. Usmonova, N. Bekmuxamedova, G. Iskandarova – "Sotsiolingvistika" "Universitet" nashriyoti- 2014 (41-bet)